“Mastercard bilan smartfonda to‘lang va MacBook yoki iPhone 18 yutib oling” aksiyasini o‘tkazish qoidalari

1. Atamalar va ta’riflar

Aksiya – mobil qurilmalardan foydalangan holda Kartalar orqali naqd pulsiz to‘lovlarni rag‘batlantirishga qaratilgan, Bank tomonidan Hamkor ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o‘tkaziladigan, uning doirasida Bank G‘oliblari aniqlanadigan va Aksiya ishtirokchilariga Sovrinlar topshiriladigan “Mastercard bilan smartfonda to‘lang va MacBook yoki iPhone 18 yutib oling” rag‘batlantiruvchi marketing aksiyasi.

Bank – “AVO bank” aksiyadorlik jamiyati (“AVO bank” AJ), STIR 207257279, ro‘yxatdan o‘tish raqami 16/1, manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko‘chasi, 29A-uy, telefon raqami: +998 78 888-78-78, elektron pochta manzili: info@avo.uz; Aksiya tashkilotchisi hisoblanadi hamda Aksiya ishtirokchilarining shaxsiy ma’lumotlarini to‘plash, saqlash va ularga ishlov berishni, Aksiya ishtirokchilari bilan aloqa o‘rnatishni va G‘oliblarni aniqlashni amalga oshiradi.

Bosh shartnoma – “AVO bank” AJda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish bo‘yicha Bosh shartnoma.

Karta – Bank tomonidan Mijozga Kartadan foydalanish huquqini berish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq chiqarilgan Mastercard xalqaro to‘lov tizimining istalgan toifadagi va istalgan valyutadagi bank kartasi.

Bank Mijozi – 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, Bank bilan Bosh shartnoma tuzgan, Bankning Mobil ilovasida Raqamli identifikatsiyadan o‘tgan va Karta egasi hisoblangan muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs.

Insofsiz operatsiyalar – To‘lovlarni sun’iy ravishda bo‘lib yuborish, soxta sotuvlar, manipulyatsiyalar, to‘lovni qaytarish yoki Aksiya shartlarini boshqacha tarzda suiiste’mol qilish alomatlariga ega operatsiyalar.

Operator – “P-4-P” mas’uliyati cheklangan jamiyati (O‘zbekiston Respublikasi), pochta manzili va joylashgan joyi: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Salar MFY, Oybek ko‘chasi, 65-uy, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan hamda Mastercard xalqaro to‘lov tizimi manfaatlarini ko‘zlab va uning ko‘magida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs. Mas’uliyat sohasi: Aksiya g‘oliblari bilan aloqa o‘rnatish, G‘oliblarga Sovrinlarni topshirishni tashkil qilish, G‘oliblar nomidan tegishli soliqni hisoblash va ushlab qolishda soliq agenti vazifasini bajarish.

Hamkor – Mastercard Middle East Africa FZ-LLC, Mastercard Building, Al Falak Street, Dubai Internet City, P.O. Box 500003, Dubai, United Arab Emirates.

To‘lov xizmati – Bank va to‘lov tizimi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan, shu jumladan ilova ko‘rinishida joriy etilgan, Kartani biriktirish, Tokenni yaratish, saqlash va undan foydalanish, shuningdek, mos keluvchi qurilmada Tokendan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan dasturiy-texnik servis.

G‘olib – Tegishli Yutuqli o‘yin ishtirokchilari ro‘yxatidan tasodifiy tarzda tanlab olingan hamda Qoidalarga muvofiqligi bo‘yicha tekshiruvdan o‘tgan Aksiya ishtirokchisi.

Xarid – Qoidalar shartlariga muvofiq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki undan tashqarida, POS-terminalda yoki Internet tarmog‘ida To‘lov xizmati orqali Kartadan foydalangan holda tovarlar, ishlar yoki xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha muvaffaqiyatli naqd pulsiz Operatsiya.

POS-terminal – savdo va xizmat ko‘rsatish korxonasining naqd pulsiz to‘lovlarni qabul qilishga mo‘ljallangan elektron qurilmasi.

Qoidalar – Aksiyani o‘tkazish tartibini belgilovchi mazkur hujjat.

Sovrin – Qoidalarga 1-ilovaga muvofiq iPhone yoki MacBook.

Zaxiradagi g‘olib – O‘yinda G‘olib aniqlangandan so‘ng tasodifiy tarzda tanlab olingan hamda Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda Sovringa bo‘lgan huquq o‘ziga o‘tadigan Aksiya ishtirokchisi.

O‘yin – Qoidalarga muvofiq o‘tkaziladigan hamda G‘oliblar va Zaxiradagi g‘oliblarni tasodifiy tarzda tanlashni nazarda tutuvchi, Aksiya bosqichi yakunlari bo‘yicha Aksiya ishtirokchilari orasidan G‘oliblar hamda Zaxiradagi g‘oliblarni aniqlash tartib-taomili.

Bank sayti – Bankning Internet tarmog‘idagi www.avobank.uz manzilida joylashgan rasmiy veb-sayti.

Xaridlar summasi – Aksiya ishtirokchisining Aksiya bosqichi davomida Bank tomonidan chiqarilgan barcha Mastercard kartalari bo‘yicha amalga oshirgan Xaridlarining umumiy summasi bo‘lib, Aksiyaning har bir Bosqichi bo‘yicha alohida hisoblanadi.

Aksiya ishtirokchisi – Bank mijozi bo‘lgan, Karta egasi hisoblangan va mazkur Qoidalar shartlariga javob beradigan jismoniy shaxs.

Imkoniyat – tegishli Sovrin o‘yini o‘tkazilgunga qadar Ishtirokchilarni saralash natijalariga ko‘ra Aksiya ishtirokchisiga beriladigan virtual hisob birligi bo‘lib, uning miqdori Qoidalarning 3.3-bandiga muvofiq Aksiya bosqichi davridagi Aksiya ishtirokchisining xaridlari summasiga bog‘liq bo‘ladi.

Aksiya bosqichi – Qoidalarning 2.3-bandiga muvofiq Aksiya davri bo‘lib, uning yakunlari bo‘yicha Ishtirokchilar ro‘yxati shakllantiriladi, Yutuqli o‘yin o‘tkaziladi va G‘oliblar aniqlanadi.

iPhone – iPhone 18 Pro sovrini, xotirasi 256 GB, rangi Burgundy.

MacBook – MacBook Air 13,6" M5 (10C CPU / 8C GPU) sovrini, RAM 16 GB, xotirasi 512 GB, rangi Sky Blue.

Qoidalarda bosh harf bilan qo‘llanilgan boshqa atamalar Bosh shartnomadagi bilan bir xil ma’noga ega.

2. Umumiy qoidalar

2.1. Mazkur Qoidalar Aksiyani o‘tkazish muddatlari va tartibini, ishtirok etish shartlarini, G‘oliblarni aniqlash hamda Sovrinlarni topshirish tartibini belgilaydi.

2.2. Aksiyani o‘tkazish muddati: 2026-yil 16-noyabr soat 00:00:01 dan 2027-yil 11-fevral soat 23:59:59 gacha (Sovrinlarni topshirish muddati ham shu jumladan). Aksiyani o‘tkazish muddati Bank tashabbusi bilan o‘zgartirilishi mumkin. Aksiyani o‘tkazish muddati o‘zgargan taqdirda, Bank bu haqda Bank veb-saytida tegishli ma’lumotni joylashtirish orqali Aksiya ishtirokchilarini xabardor qiladi.

2.3. Aksiya 4 (to‘rt) Bosqichda o‘tkaziladi:

2.3.1. 1-bosqich – 2026-yil 16-noyabrdan 29-noyabrgacha;

2.3.2. 2-bosqich – 2026-yil 30-noyabrdan 13-dekabrgacha;

2.3.3. 3-bosqich – 2026-yil 14-dekabrdan 27-dekabrgacha;

2.3.4. 4-bosqich – 2026-yil 28-dekabrdan 2027-yil 10-yanvargacha.

2.4. Aksiyani o‘tkazish hududi: O‘zbekiston Respublikasining butun hududi.

2.5. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ommaviy ofertani muddatidan oldin chaqirib olish imkoniyati nazarda tutilmagan.

2.6. Aksiya ishtirokchisi tomonidan Qoidalar shartlariga mos keladigan Xaridning amalga oshirilishi ofertaning to‘liq va so‘zsiz aksepti hisoblanadi.

2.7. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy va avtomatik tarzda amalga oshiriladi hamda qo‘shimcha ro‘yxatdan o‘tishni yoki ishtirok uchun to‘lov qilishni talab etmaydi.

2.8. Qoidalar, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bank veb-saytida e’lon qilinadi.

3. Aksiyada ishtirok etish qoidalari

3.1. Ishtirokchilar ro‘yxati shakllantirilayotgan va Yutuqli o‘yin o‘tkazilayotgan paytda quyidagi talablarga javob beradigan Bank mijozlari Aksiya ishtirokchilari hisoblanadi:

3.1.1. amaldagi Karta egalari bo‘lgan yoki Aksiya o‘tkazilishi davrida Karta olgan shaxslar;

3.1.2. Aksiyaning tegishli Bosqichi davomida Xaridlarni amalga oshirgan va mazkur xaridlar summasi Qoidalarning 3.3-bandi hamda 1-ilovasida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan shaxslar;

3.1.3. Qoidalarning 3.6-bandida ko‘rsatilgan shaxslar toifasiga kirmaydigan shaxslar.

3.2. Faqatgina Aksiyaning tegishli Bosqichi davrida To‘lov xizmatidan foydalangan holda amalga oshirilgan, Yutuqli o‘yin ishtirokchilari ro‘yxati shakllantirilayotgan paytda bekor qilinmagan, qaytarilmagan va nizolashilmagan muvaffaqiyatli Xaridlar hisobga olinadi. Bitta Aksiya ishtirokchisining Xaridlari uning barcha Kartalari bo‘yicha Aksiyaning har bir Bosqichi uchun alohida jamlanadi.

3.3. Aksiya Bosqichi Yutuqli o‘yinlarida ishtirok etish shartlari:

3.3.1. Aksiya doirasidagi tegishli Bosqich uchun Xaridlar summasi 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘mga teng yoki undan ortiq bo‘lgan (yoki xorijiy valyutadagi Kartalar uchun 21 AQSH dollari / 18,50 yevro ekvivalentida) Aksiya ishtirokchilari iPhone o‘yinida ishtirok etadilar. Aksiya bosqichi davridagi har to‘liq 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘mlik Xaridlar summasi Aksiya ishtirokchisiga iPhone o‘yinida bitta Imkoniyat beradi;

3.3.2. Aksiya doirasidagi tegishli Bosqich uchun Xaridlar summasi 500 000 (besh yuz ming) so‘mga teng yoki undan ortiq bo‘lgan (yoki xorijiy valyutadagi Kartalar uchun 42 AQSH dollari / 37 yevro ekvivalentida) Aksiya ishtirokchilari MacBook o‘yinida ishtirok etadilar. Aksiya bosqichi davridagi har to‘liq 500 000 (besh yuz ming) so‘mlik Xaridlar summasi Aksiya ishtirokchisiga MacBook o‘yinida bitta Imkoniyat beradi.

Aksiya ishtirokchisi Aksiya doirasidagi tegishli Bosqichdagi Xaridlar summasiga qarab, har bir turdagi Sovrin o‘yinida bir vaqtning o‘zida bir yoki bir nechta Imkoniyatga ega bo‘lishi mumkin.

3.4. Xaridlar summasiga quyidagi Operatsiyalar kiritilmaydi:

3.4.1. naqd pul mablag‘larini yechib olish va Kartalarni to‘ldirish;

3.4.2. kartalar o‘rtasidagi o‘tkazmalar, hisobvaraqlar o‘rtasidagi o‘tkazmalar, MoneySend va boshqa o‘tkazmalar;

3.4.3. QR-kod orqali amalga oshirilgan operatsiyalar (oflayn va onlayn);

3.4.4. bekor qilingan, qaytarilgan, nizoli, firibgarlik va insofsiz operatsiyalar, shu jumladan qisqa vaqt oralig‘ida bitta savdo nuqtasida ketma-ket amalga oshirilgan bir nechta xaridlar;

3.4.5. Qoidalarga 2-ilovada ko‘rsatilgan MCC-kodlariga ega savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalarida to‘lov operatsiyalari.

3.5. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi Qoidalarga 1-ilovaga muvofiq Sovrinlarni o‘z ichiga oladi. Sovrinlar Hamkor tomonidan taqdim etiladi.

3.6. Bank, Operator, pudratchilar va Hamkorning Aksiyani tashkil etishga bevosita jalb etilgan xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari hamda Bank bilan aloqador shaxslar Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas va unga qo‘yilmaydi. Yutuqli o‘yin o‘tkazilgandan so‘ng ushbu shaxslarning unda ishtirok etganlik holati aniqlangan taqdirda, ular Aksiya o‘tkazilishining qaysi bosqichida ekanligidan qat’i nazar, Sovrinni olish huquqisiz Aksiya ishtirokchilari safidan chiqariladi.

4. G‘oliblarni aniqlash tartibi

4.1. Yutuqli o‘yinlar Aksiyaning har bir Bosqichi yakunlari bo‘yicha, u tugaganidan so‘ng 1 (bir) ish kuni ichida quyidagi jadvalga muvofiq o‘tkaziladi:

Bosqich	Aksiya bosqichi davri	Yutuqli o‘yin sanasi	Vaqti
1-yutuqli o‘yin	2026-yil 16-noyabr – 29-noyabr	2026-yil 30-noyabr	Toshkent vaqti bilan soat 19:00
2-yutuqli o‘yin	2026-yil 30-noyabr – 13-dekabr	2026-yil 14-dekabr	Toshkent vaqti bilan soat 19:00
3-yutuqli o‘yin	2026-yil 14-dekabr – 27-dekabr	2026-yil 28-dekabr	Toshkent vaqti bilan soat 19:00
4-yutuqli o‘yin	2026-yil 28-dekabr – 2027-yil 10-yanvar	2027-yil 11-yanvar	Toshkent vaqti bilan soat 19:00

4.2. Aksiya har bir Bosqichining yakunlari bo‘yicha Bank ishtirokchilarning ikkita ro‘yxatini shakllantiradi: iPhone O‘yini ishtirokchilari ro‘yxati (Aksiya Bosqichida amalga oshirilgan xaridlar summasi 250 000 so‘mdan boshlab) va MacBook O‘yini ishtirokchilari ro‘yxati (Aksiya

Bosqichida amalga oshirilgan xaridlar summasi 500 000 so‘mdan boshlab). Aksiya Ishtirokchisining ro‘yxatdagi yozuvlari soni uning Imkoniyatlari soniga mos keladi.

4.3. G‘oliblar va Zaxira g‘oliblarni tasodifiy tanlab olish O‘yin ishtirokchilari ro‘yxatining shakllantirilgan yozuvlari orasidan Ishtirokchi Imkoniyatini tasodifiy tanlashni ta’minlovchi maxsus dasturiy ta’minot (randomayzer) vositasida amalga oshiriladi. Dasturiy ta’minot sifatida RANDOM.ORG tasodifiy sonlar generatori onlayn xizmatidan yoki tanlov natijalarining xolisligi, tasodifiyligi va qayta tekshiruvchanligini ta’minlovchi shunga o‘xshash boshqa xizmatlardan foydalaniladi. Tasodifiy tanlov yo‘li bilan Imkoniyati aniqlangan Ishtirokchi G‘olib deb topiladi.

4.4. Har bir O‘yinda Bank 2 (ikki) nafar G‘olibni aniqlaydi: 1 (bir) nafar G‘olib iPhone 18 Pro, 1 (bir) nafar G‘olib esa MacBook Air yutib oladi. Aksiya o‘tkazilish davrida jami 4 (to‘rt) nafar iPhone G‘olibi va 4 (to‘rt) nafar MacBook G‘olibi aniqlanadi.

4.5. O‘sha O‘yin davomida G‘olib aniqlangach, Bank har bir Sovrin turi bo‘yicha ketma-ket 2 (ikki) nafar Zaxira g‘olibini aniqlaydi. Qoidalarning 4.6, 4.7 va 5.5-bandlarida nazarda tutilgan hollarda Sovringa bo‘lgan huquq Zaxira g‘oliblariga ularning aniqlanish navbatiga ko‘ra o‘tadi.

4.6. Aksiya o‘tkazilishi davrida Aksiya ishtirokchisi ko‘pi bilan bitta Sovrin olishi mumkin. Agar Aksiya ishtirokchisi bitta Yutuqli o‘yinda ikkala Sovrin bo‘yicha ham G‘olib deb topilsa, u faqat bitta Sovrinni olishga haqli bo‘ladi, ikkinchi Sovringa bo‘lgan huquq esa Zaxiradagi g‘olibga o‘tadi. Agar Aksiya ishtirokchisi avvalroq Aksiya G‘olibi bo‘lgan bo‘lsa, Sovringa bo‘lgan huquq Zaxiradagi g‘olibga o‘tadi.

4.7. Operatsiya bekor qilinganda, Xarid qaytarilganda, Insofsiz operatsiya aniqlanganda yoki Aksiya ishtirokchisi Qoidalar shartlariga muvofiq kelmay qolib, buning natijasida Aksiya ishtirokchisining Aksiya bosqichidagi xaridlari summasi belgilangan chegaradan kamayib ketsa, Sovringa bo‘lgan huquq Zaxiradagi g‘olibga o‘tadi.

4.8. Yutuqli o‘yin o‘tkazilayotganda birinchi bo‘lib tanlangan Zaxiradagi g‘olib Qoidalarning 4.6, 4.7 hamda 5.5, 5.9-bandlariga muvofiq Sovrinni olish huquqidan mahrum bo‘lgan taqdirda, Sovrinni olish huquqi Yutuqli o‘yin o‘tkazilayotganda ikkinchi bo‘lib tanlangan Zaxiradagi g‘olibga o‘tadi.

4.9. Sovrinni olish bo‘yicha uzil-kesil huquq G‘olib yoki Zaxiradagi g‘olibning Qoidalar shartlariga muvofiqligi tasdiqlangandan so‘ng vujudga keladi.

4.10. Yutuqli o‘yin natijalari bo‘yicha G‘oliblar va zaxiradagi G‘oliblar ro‘yxati Bankning ijtimoiy tarmoqlar hamda messenjerlardagi (Instagram / Telegram) rasmiy kanallarida e’lon qilish orqali ma’lum qilinadi. Ro‘yxatda quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi:

4.10.1. Ismi va familiyasi yoki ismi hamda familiyasining birinchi harfi;

4.10.2. Mobil telefon raqamining oxirgi 4 ta raqami.

5. Sovrinlarni topshirish tartibi

5.1. Bank G‘oliblarni Bank tizimlarida mavjud bo‘lgan aloqa ma’lumotlaridan foydalangan holda va/yoki Bankning Mobil ilovasi orqali xabardor qiladi, G‘olibning Sovrinni olishga roziligini oladi va G‘olibning roziligini olgach, quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan Sovrinni olish sertifikatini rasmiylashtiradi:

5.1.1. G‘olibning familiyasi, ismi va otasining ismi (mavjud bo‘lsa);

5.1.2. G‘olibning STIRi;

5.1.3. Sovrinning nomi;

5.1.4. Sertifikatning unikal raqami;

5.1.5. Sertifikat berilgan sana;

5.1.6. Operatorning aloqa telefon raqami.

5.2. Bank sertifikatni G‘olib ko‘rsatgan manzil bo‘yicha yetkazib beradi.

5.3. Sovrinni olish uchun G‘olib sertifikatda ko‘rsatilgan telefon raqami orqali Operator bilan mustaqil ravishda bog‘lanadi.

5.4. G‘olib Operator tomonidan belgilangan muddatda Operatorga shaxsni tekshirish, Sovrinni rasmiylashtirish va soliqlarni to‘lash uchun zarur bo‘lgan quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

5.4.1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti;

5.4.2. JSHSHIR ma’lumotlari;

5.4.3. 5.1-bandga muvofiq Bank tomonidan berilgan sertifikatning asl nusxasi;

5.4.4. Operator tomonidan alohida so‘rovga binoan ko‘rsatilgan boshqa hujjatlar.

Hujjatlar va ma’lumotlar to‘liq hamda ishonchli bo‘lishi kerak. Operator G‘olibga Sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi shaklini va shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash hamda ularga ishlov berishga rozilik shaklini yuboradi. Bank va Operator G‘oliblarga Sovrinni olish va undan foydalanish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni olishda ko‘maklashmaydi.

5.5. Sovrinlar Operator tomonidan tekshiruvdan o‘tgandan va Sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan so‘ng, tegishli O‘yin o‘tkazilgan sanadan boshlab 30 (o‘ttiz) taqvim kuni ichida Toshkent shahrida G‘oliblarning shaxsan o‘ziga topshiriladi.

5.6. Sovrinlar G‘oliblarga yoki Zaxira g‘oliblariga faqat natura (asl) shaklida topshiriladi. Sovrinni boshqasiga almashtirishga yoki uning pul ekvivalentini to‘lab berishga yo‘l qo‘yilmaydi. G‘oliblar yoki Zaxira g‘oliblari tomonidan Sovrinlarni qabul qilish bilan bog‘liq soliqlarni to‘lash O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Operator tomonidan amalga oshiriladi. Sovrin topshiriladigan joyga yetib kelish bilan bog‘liq xarajatlarni, shuningdek, boshqa shaxsiy xarajatlarni G‘olib o‘z zimmasiga oladi.

5.7. Agar G‘olib ilk xabar berishga urinilgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida aloqaga chiqmasa, Sovrindan voz kechsa, zarur hujjatlarni taqdim etmasa yoki Qoidalar talablariga mos kelmasa, Sovrin Zaxira g‘olibiga o‘tkaziladi.

5.8. Bank Aksiya natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bank saytida va Bankning boshqa rasmiy kanallarida qonunchilikda hamda Aksiya ishtirokchilarining roziligida ko‘zda tutilgan hajmda e’lon qilishga haqlidir.

5.9. Sovrinni G‘olibga topshirish jarayoni foto/videotasvir orqali qayd etilishi mumkin. G‘olib Aksiyada ishtirok etish orqali quyidagilarga o‘z roziligini tasdiqlaydi (hamda Bank va/yoki Operatorning talabiga binoan o‘z shaxsiy ma’lumotlaridan foydalanish va ularga ishlov berish bo‘yicha tegishli yozma rozilikni kechiktirmasdan taqdim etishga tayyorligini bildiradi):

5.9.1. Bank va/yoki Operator, shuningdek, ular topshirig‘iga ko‘ra uchinchi shaxslar tomonidan G‘olibni foto va videotasvirga olish;

5.9.2. G‘olib ishtirokida olingan foto va videoyozuvlardan (bunday foydalanish uchun G‘olibning qo‘shimcha roziligini olmasdan va unga hech qanday haq to‘lamasdan), shu jumladan ommaviy axborot vositalarida (televideniye, Internet tarmog‘i, bosma nashrlar va boshqalar) reklama maqsadlarida foydalanish hamda ushbu foto va videoyozuvlardan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga o‘tkazish huquqi bilan;

G‘olib sovrinni topshirish jarayonini foto/video tasvirga olishda qatnashishdan va ushbu foto/video materiallardan keyinchalik reklama maqsadlarida foydalanilishidan bosh tortgan taqdirda, Bank va/yoki Operator G‘olibga Sovrinni berishni rad etishga haqli.

6. Cheklovlar

6.1. Bank bir tomonlama tartibda Qoidalarga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, Aksiyani to‘xtatib turish yoki bekor qilish huquqiga ega, O‘yin natijalariga ko‘ra G‘oliblar yoki Zaxiradagi g‘oliblarda olish huquqi vujudga kelib bo‘lgan Sovrinlarga oid shartlar bundan mustasno. Aksiya ishtirokchilari Bank saytidagi tegishli o‘zgarishlarni tekshirib, Qoidalarning yangilanishini mustaqil ravishda kuzatib borishlari shart.

6.2. Bank Operatsiyalar va Aksiya ishtirokchilarining Qoidalarga muvofiqligini tekshirish, firibgarlik, maydalash, texnik xatolar yoki Aksiya shartlarini suiiste’mol qilish alomatlari mavjud bo‘lgan Operatsiyalarni hisobga olmaslik (chiqarib tashlash), shuningdek, Sovringa bo‘lgan huquqni tasdiqlash uchun Aksiya ishtirokchisidan qo‘shimcha ma’lumotlar va hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

6.3. Bank quyidagi hollarda har qanday Aksiya ishtirokchisini hech qanday ogohlantirishsiz va sabablarini tushuntirmasdan Aksiya ishtirokchilari safidan chiqarishga haqli, agar Aksiya ishtirokchisi:

6.3.1. Bankni chalg‘itishga qaratilgan harakatlarni, shuningdek, Qoidalarni chetlab o‘tishga yoki Aksiyada ishtirok etish natijalariga nohalol ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan boshqa harakatlarni sodir etsa va/yoki

6.3.2. Aksiya doirasida taqdim etiladigan har qanday imtiyozlarni suiiste’mol qilsa va/yoki

6.3.3. Bankka chalg‘ituvchi ma’lumotlarni yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etsa va/yoki

6.3.4. Bankning ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlarni tarqatsa va/yoki

6.3.5. Qoidalarning 3.6-bandida ko‘rsatilgan shaxslar toifasiga kirsa.

6.4. Bank quyidagi hollarda G‘olibga yoki Zaxiradagi g‘olibga sabablarini tushuntirmagan holda Sovrinni topshirishni rad etish huquqiga ega:

6.4.1. Bank tomonidan G‘olib Qoidalar shartlarini suiiste’mol qilganlik alomatlari aniqlanganda va/yoki

6.4.2. agar Bank G‘olibning harakatlari/harakatsizligini nohalol va/yoki Aksiyada ishtirok etish shartlarini boshqacha tarzda buzuvchi deb topsa, va/yoki

6.4.3. Qoidalarning 3.6 va 6.3-bandlarida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganda.

6.5. Fors-major holatlari, jumladan, hech qanday istisnolarsiz tabiiy ofatlar, yong‘inlar, suv toshqinlari, har qanday xususiyatdagi harbiy harakatlar, qamallar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi jiddiy o‘zgarishlar, shuningdek, yuzaga kelishi Bankning xohish-irodasi va nazoratiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa yengib bo‘lmas kuch holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Bank Aksiya ishtirokchilari va boshqa uchinchi shaxslar oldida javobgar bo‘lmaydi.

6.6. Agar G‘oliblarni aniqlash va Sovrinlarni topshirishning imkonsizligi yoki o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi texnik nosozliklar, axborot tizimlari ishidagi xatoliklar yoki Bankning aybisiz yuzaga kelgan boshqa texnik sabablar bilan bog‘liq bo‘lsa, Bank buning uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

6.7. Bank Aksiya ishtirokchisida Aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar, chiqimlar va har qanday boshqa xarajatlarni, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Bank saytiga kirish, Bank aloqa markaziga qo‘ng‘iroq qilish xarajatlarini qoplamaydi va to‘lab bermaydi.

6.8. Aksiyada 18 yoshga to‘lmagan shaxslar va Qoidalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan boshqa shaxslar ishtirok eta olmaydi.

7. Shaxsga doir ma’lumotlar

7.1. Aksiya ishtirokchisi Aksiyada ishtirok etish orqali o‘zining shaxsga doir ma’lumotlari Aksiyani tashkil etish, G‘oliblarni aniqlash, Sovrinlarni topshirish, soliqlarni to‘lash va natijalarni e’lon qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hajmda Bank

tomonidan qayta ishlanishi va Operatorga berilishi mumkinligini tasdiqlaydi hamda bunga rozilik bildiradi.

7.2. G‘olib va/yoki Zaxira g‘olibi Bank va/yoki Operatorga 4.10-bandga muvofiq ma’lumotlarni e’lon qilishga rozilik beradi.

7.3. Zarur hollarda G‘olib shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish, foto va videotasvirga olish, shuningdek, Aksiya bilan bog‘liq axborot tarqatish (kommunikatsiya) doirasida o‘z tasviridan foydalanishga alohida rozilik xatini imzolaydi.

7.4. Bank shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq ta’minlaydi.

8. Boshqa shartlar

8.1. Aksiya faqat reklama xususiyatiga ega bo‘lib, o‘yin, garov va/yoki lotereya hisoblanmaydi, tavakkalchilik elementini o‘z ichiga olmaydi va Aksiya ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xavf-xatarlarni o‘z zimmalariga olmaydilar.

8.2. Qoidalardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi. Jismoniy shaxs sudga da’vo arizasi berishdan oldin nizolarni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etishi — quyidagi usullardan biri orqali yozma e’tiroz yuborishi shart:

8.2.1. Bank tomonidan e’tiroz qabul qilinganligi tasdiqlangan holda, Bankning davlat ro‘yxatidan o‘tgan joyi bo‘yicha;

8.2.2. elektron pochta orqali: info@avo.uz.

8.3. E’tiroz da’vo muddati davomida bildirilishi mumkin. Bank e’tirozni ko‘rib chiqadi va u olingan kundan e’tiboran 30 (o‘ttiz) kalendar kundan oshmagan muddatda javob yo‘llaydi. E’tiroz to‘liq yoki qisman rad etilganda yoxud belgilangan muddatda Bankdan javob olinmagan taqdirda, jismoniy shaxs sudga da’vo qo‘zg‘atishga haqli.

8.4. Qoidalardan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudida ko‘rib chiqiladi. Agar nizo bo‘yicha da’vogar Bank bo‘lsa, Bank o‘z xohishiga ko‘ra nizoni O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudining reglamenti hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Toshkent shahrida yakka hakamlik sudyasi tomonidan rus tilida hal qilish uchun ushbu Hakamlik sudiga murojaat qilishga haqli.

8.5. Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8.6. Aksiya ishtirokchisi Qoidalarni bilishi va ularga rioya qilishi shart. Aksiya ishtirokchisi o‘z nomidan shaxsan, ixtiyoriy hamda mustaqil ravishda harakat qiladi, shartlarni, o‘z harakatlarining oqibatlarini va Qoidalarda belgilangan tegishli holatlarni aniq tushunadi.

8.7. Aksiya ishtirokchisi Bankning Aloqa markaziga +998 78 888-78-78 telefon raqami yoki info@avo.uz elektron pochta manzili orqali murojaat qilib, Aksiyadagi ishtirokidan voz kechish huquqiga ega.

Qoidalarga 1-ilova

“Mastercard bilan smartfonda to‘lang va MacBook yoki iPhone 18 yutib oling” aksiyasi doirasidagi yutuqli o‘yinlar sovrin jamg‘armasi hamda ularda ishtirok etish talablari

№	Sovrin	Soni	O‘yinda ishtirok etish shartlari
1	iPhone 18 Pro, xotirasi 256 GB, rangi Burgundy	4 dona (Aksiyaning har bir bosqichida 1 tadan)	Aksiya bosqichidagi xaridlar summasi kamida 250 000 so‘m (21 USD / 18,50 EUR); har bir to‘liq 250 000 so‘m uchun +1 imkoniyat
2	MacBook Air 13,6" M5 (10C CPU / 8C GPU), RAM 16 GB, xotirasi 512 GB, rangi Sky Blue	4 dona (Aksiyaning har bir bosqichida 1 tadan)	Aksiya bosqichidagi xaridlar summasi kamida 500 000 so‘m (42 USD / 37 EUR); har bir to‘liq 500 000 so‘m uchun +1 imkoniyat
	Jami:	**8 dona**	

Sovrinlar Hamkor tomonidan taqdim etiladi va Operator tomonidan G‘oliblarga natura shaklida topshiriladi. Sovrinlarning xususiyatlariga Bank tomonidan aniqlik kiritilishi mumkin.

Qoidalarga 2-ilova

Aksiyada hisobga olinmaydigan tranzaksiyalar (operatsiyalar) bo‘yicha MCC-kodlar ro‘yxati

MCC-kodlar	Toifa
4829, 6537, 6531, 6533, 6534	Pul o‘tkazmalari
7995, 7800, 7801, 9406, 9754	Qimor o‘yinlari
4900	Kommunal xizmatlar
4812, 4813, 4814, 4815, 4816, 4899	Telekommunikatsiya, internet va axborot xizmatlari
5046, 5047, 5285	Tijorat uskunalari
5933	Lombardlar
5960	To‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing – sug‘urta xizmatlari
6010, 6011, 6012	Moliya institutlari
6050, 6051	Kvazi-kesh, chet el valyutasi, o‘tkazmalar, yo‘l cheklari
6211	Qimmatli qog‘ozlar
6300, 6381, 6399	Sug‘urta va sug‘urta xizmatlari
6529, 6532, 6535, 6538, 6540	Moliya tashkilotlari, kartadan kartaga o‘tkazmalar va hisob to‘ldirish
7277, 7321, 7399, 7394	Boshqa xizmatlar va biznes-servislar
7513, 7519	Avtofurgonlar, treylerlar va g‘ildirakli uylar ijarasi
9211, 9222, 9223, 9311, 9399, 9402, 9405	Soliqlar, jarimalar, garovlar va davlat xizmatlari
8398, 8641, 8651, 8661, 8675	Jamoat, fuqarolik, siyosiy va diniy tashkilotlar
9999	QR-to‘lovlar